



IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA KORXONALARDA IJARA MUNOSABATLARINI TAKOMILLASH MASALALARI

Qudbiyev Nodir Tohirovich

Farg'ona politexnika instituti,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası, assistenti,
e-mail: nodir.qudbiyev@ferpi.uz, +998911054548.

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA / АННОТАЦИЯ / ANNOTATION

Qabul qilindi: 24-sentabr 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2024-yil

Jurnal soni: 12

Maqola raqami: 4

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.981>

KALIT SO'ZLAR / КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА /
KEYWORDS

Bozor iqtisodiyoti, moliyaviy
imkoniyatlar, ijara munosabatlari, ishlab
chiqarish quvvatlari, asosiy vositalar,
ijaraga olish, ijaraga majburiyatlari,
foydalanish huquqi, investitsiya faoliyat,
lizing, mulkdor, lizing munosabatlari,
mulkni davlat tasarrufidan chiqarish.

Ushbu maqolada biz bugungi iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida korxonalarda ijara munosabatlarini takomillashning ayrim jihatlariga muhokama etiladi. Tadqiqot maqsad sifatida ijara munosabatlarni iqtisodiy imkoniyatlarini ochib berish iborat. Umuman zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib ijara munosabatlarini o'rganish va ularni takomillashdirish dolzarb masalalardan hisoblanadi, zero, mulkiy munosabatlar va ular bo'yicha turli mexanizmlar, nafaqat mulk egasiga balki uni ijara oluvchi uchun ham foydani ko'paytirish omili hisoblanadi, shu munosabati bilan ushbu tadqiqot bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda shakllantirildi.

Kirish. Bugungi kunga kelib, ko'plab firmalar iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda o'z shaxsi mulkidan emas o'zgalarning mulkidan foydalanib kelishadi, bu ularning uchun zarur bo'lgan mulk katta xarajat bilan erishish mumkinligi bilan izohlanadi. Ushbu muammoning mumkin bo'lgan yechimlaridan biri bu uzoq muddatli ijara yoki moliyaviy lizing shartnomasi tuzishdir. Moliyaviy lizing biznesni yuritishning samarali usuli sifatida chet elda keng qo'llanilmoqda va bugungi kunda ushbu amaliyot O'zbekistonda ham tobora ommalashib bormoqda.

Ijara munosabatlari ishlab chiqarishning muhim omillaridan biridir. Bir tomondan, mehnat va kapital birgalikda ijara subyektlarining qatnashishida byudjetni shakllantiradi. Bundan, o'z navbatida, jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari yechiladi, ikkinchi tomondan, takror ishlab chiqarishni rivojlantirish va bozorni zaruriy mahsulot bilan ta'minlashga imkon bo'ladi.

Ijaraga oluvchi (korxonalar) ikki tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo'ladi, ya'ni o'z ixtiyori bilan va mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi hamda uni nafaqat o'zining ishlab chiqarishini takomillashtirish qiziqtiradi, balki ishlab chiqarish faoliyat doirasidan kelayotgan daromad ham uning bosh maqsadini tashkil etadi. Bunda ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi ham ta'minlanadi.

Shu jumladan, ijara beruvchi va ijara oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ijara to'lovlari tashkil etadi. Bunda egalik munosabatlari, foydalanish, realizatsiya va ishlab chiqarish vositalariga (asbob-uskunalar, mulkka) egalik qilishni o'zlashtirilishi ham o'z aksini topadi. Ijaraning iqtisodiy mohiyati, ijara bitimi davrida paydo bo'ladigan mulkiy munosabatlar bilan tavsiflanishi asosida tushuntiriladi. Shartnoma predmeti bo'lgan mulki ijara beruvchining o'z mulki hisoblanadi, ijara oluvchi shartnoma amal qilish muddati mobaynida unga egalik qilish va undan ma'lum to'lov asosida ijara beruvchidan foydalanishga oladi. Ijaraga beruvchi mulkka to'liq egalik qilishi uchun sotuvchi (yetkazib beruvchi)dan oldi-sotdi shartnomasi asosida mulkning to'la qiymatini to'lab beradi.

Ijaraga oluvchi mulkdan foydalanish va unga egalik qilish huquqini ijara shartnomasi asosida oladi. Bunda ijara beruvchiga shartnomada nazarda tutilgan ijara to'lovlari summasini to'liq to'lab beradi. Ijara to'lovlari o'z tarkibiga shartnomada ta'kidlangan mulkning to'la yoki qisman qiymatini hamda, ko'rsatilgan ijara xizmati va qo'shimcha servis xizmatlari to'lovini oladi.

Darhaqiqat, iqtisodiyotning evolyutsion rivojlanishi korxonalarda asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilanish zarurligini taqozo etadi. Bu ko'p jihatdan asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish va ularning xo'jalik yurituvchi subyektlarda eskirishi, shuningdek ular bo'yicha auditni maqbul

tarzda tashkil etishga, ularning ajralmas qismi sifatida ijara munosabatlarini hisobga bog'liqdir. Buni shu tarzda tushuntirish mumkin, bugungi kunda ushbu tizimda milliy standartlarni hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari amaliyotga joriy etish vaqtida, ushbu turdagi munosabatlarni korxonalarda buxgalteriya hisobida aks ettirishning yangi tartiblarini belgilaydi.

Korxonalarda asosiy vositalarni ijaraga olishda ularning qiymati, xizmat muddati, holati, yangilanish darajasi, eskirishini hisoblash, sifati va samaradorligi kabi ko'rsatkichlar muhimdir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xalqaro standartlar asosida ijara haqini hisobga olishni takomillashtirish bugungi kunda juda dolzarbli masalalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi (uslubiy materiallar sharhi). Ijara obyektini yuridik sohada "iste'mol qilinmaydigan narsalar" atamasi ostida birlashtirilgan, ish paytida tabiiy xususiyatlarini yo'qotmaslik xususiyatiga ega bo'lgan turli xil mulk bo'lishi mumkin. Ushbu xususiyat asl obyektini mualliflik huquqiy egasiga uning funksional va sifat xususiyatlarini o'zgartirmasdan qaytarish imkonini beradi. Bu yer uchastkalari, binolar, uskunalar, transport va boshqa shunga o'xshash obyektlar, qoida tariqasida, tashkilotlarning asosiy vositalari hisoblanadi.

IFRS 16 "Ijara" xalqaro moliyaviy hisobot standarti lizing ma'lumotlarini tan olish, o'lchash, taqdim yetish va oshkor qilish tamoyillarini belgilaydi. 2016-yil yanvar oyida Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari Kengashi (IASB) 16-sonli "Ijara" IFRSni yangi tahririni e'lon qildi. Yangi IFRS 16 "Ijara" standartini ishlab chiqishdan maqsad operatsion va moliyaviy lizingni tan olishdagi farqlarni bartaraf etish edi. Uzoq vaqt davomida ijarachilarning hisobotlari investorlarning ehtiyojlarini qondirmadi. Investorlar baholangan aktivlar va majburiyatlarni tan olish uchun moliyaviy hisobotlarni tuzatishlari kerak edi, shu bilan kompaniyalarning ijara operatsiyalari va ularni moliyalashtirish to'g'risida chuqurroq tushuncha ega bo'lishdi.

IFRS 16 "Ijara" ning joriy yetilishi natijasida IFRS bo'yicha hisobot beradigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi, baholash va moliyaviy holatidagi tendensiyalarni aniqlash ijarachilarning investorlarga investitsiya samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tashkilotni boshqarish uchun investorlarga aktivlari va majburiyatlari miqdori to'g'risida ishonchli ma'lumot olish imkonini berdi.

Jahon ijara bozori 1,352,88 yilda 2021 milliard dollardan 1,528,03 yilda 2022 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda, bu yillik o'sish sur'ati 12,9% ni tashkil qiladi. O'sish, asosan, kompaniyalar o'z faoliyatini qayta tiklayotgani va COVID-19 ta'sirini kamaygani bilan bog'liq bo'lib, bu ilgari cheklov choralari, shu

jumladan ijtimoiy uzoqlashtirish, masofadan ishlash va tijorat faoliyatining yopilishiga olib keldi, bu esa operatsion muammolarga olib keldi. 2026-yilga kelib bozor hajmi 2403,84 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, o'rtacha yillik o'sish 12,0% ni tashkil qiladi (Osokina, K. A., 2023).

Ijara-bu investitsiya faoliyatining bir turi bo'lib, unda mulk ijaraga oluvchining ko'rsatmasi bilan ijaraga kompaniyasi tomonidan sotib olinadi va ijara shartnomasi asosida ma'lum haq evaziga, ma'lum muddatga va shartnomada nazarda tutilgan muayyan shartlar asosida ijara oluvchiga egalik qilish va foydalanish huquqiga ega bo'ladi (Alekseyeva, G. I., 2020).

Ijara munosabatlari davomida ijara beruvchida qoladigan mulk huquqi va ijaraga oluvchiga — sanoat yoki tijorat korxonasi o'tadigan mulk huquqi (ya'ni o'z xohishiga ko'ra foydalanish huquqi) ajratiladi (Anderson, J. L. va Bogart, D. B., 2024). Zamonaviy O'zbekiston qonunchiligi ijaraga olingan asbob-uskunalarga va ijara oluvchining ishlab chiqarish tannarxiga ijara to'lovlariga tezashtirilgan amortizatsiya muddatlarini qo'llashga imkon beradi, bu esa soliq imtiyozlarini kamaytiradi, shuning uchun xalqaro talablarda ijara tushunchasi lizing tushunchasi bilan almashtirilgan, zero lizing mulkni sotib olishning eng jozibali usuliga aylantiradi.

Lizing munosabatlari mulkni sotish vositasidir. Bu begonalashtirish-o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi (Haila, A. (2022). Amalda, u mulkdorga lizing oluvchiga (mulkni sotish subyekti sifatida) lizinga oluvchiga olingan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, egalik qilish, qisman tasarruf etish va foydalanish (mulk subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar) huquqlarini berish orqali amalga oshiriladi. Lizing-bu korxonani ma'lum bir haq evaziga asosiy vositalar bilan ta'minlash orqali kreditlashning maxsus usuli. Lizing obyekti har qanday ko'char va ko'chmas mulk, shuningdek dasturiy ta'minot va ish vositalari bo'lishi mumkin. (A.A. Golubiskaya, 2023).

Muhim o'zgarishlar ijaraga oluvchining buxgalteriya hisobiga ta'sir ko'rsatadi. Standart barcha ijara shartnomalarini hisobga olish va hisobot berishning yagona modelini belgilaydi. Har qanday ijara shartnomasi ijaraga oluvchining balansida foydalanish huquqi va ijara majburiyati ko'rinishidagi aktiv sifatida taqdim etilishi kerak.

Istisno-qisqa muddatli ijara va moddiy qiymati katta bo'lmaga past qiymatli aktivlarni ijaraga olish kiradi.

Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivni dastlabki baholashga ijara majburiyatini dastlabki baholash summasi, ijaraga oluvchining shartnoma tuzish bilan bog'liq dastlabki to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari, ijara to'lovlari kiradi.

Ijaraga majburiyatining dastlabki bahosi, agar uni aniqlash mumkin bo'lsa, shartnomadagi foiz stavkasidan foydalangan holda ijara to'lovlarini diskontlash yo'li bilan belgilanadigan ijara to'lovlarining hozirgi qiymatiga teng bo'ladi. Agar uni aniqlashning iloji bo'lmasa, ijaraga oluvchi tomonidan qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilish stavkasidan foydalaniladi.

Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivni keyingi baholashda ijara boshlangan kundan keyin maqbul buxgalteriya modellari tannarxi bo'yicha buxgalteriya modeli (tannarxi bo'yicha) va amortizatsiya bilan qayta baholangan qiymat bo'yicha buxgalteriya modeli, investitsiya uchun ko'chmas mulk – adolatli qiymat bo'yicha buxgalteriya modeli sifatida shakllantiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv,

retrospektiv yondashish, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Korxonada nuqtai nazaridan lizing har qanday ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga keng ko'lamli kapital qo'shilmalarga imkon beradigan moliyaviy vositalardan eng foydalisi hisoblanadi. Uskunani sotib olishning boshqa usullari bilan taqqoslaganda (yetkazib berish paytida to'lov, kechiktirilgan to'lov bilan sotib olish, bank krediti va boshqalar), lizing bir qator muhim afzalliklarga ega.

Birinchidan, lizing oluvchiga ishlab chiqarishni kengaytirish yoki modernizatsiya qilish hamda katta miqdordagi xarajatlarsiz va qarz mablag'larini jalb qilish zaruratsiz uskunalariga texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Ikkinchidan, cheklangan likvidlik muammosi yumshatiladi, asbob-uskunalarni sotib olish xarajatlari shartnomaning butun muddati davomida teng taqsimlanadi, boshqa turdagi aktivlarga sarmoya kiritish uchun mablag'lar bo'shatiladi.

Uchinchidan, qarzga olingan kapital jalb qilinmaydi va korxonada balansida o'z va qarz kapitalining maqbul nisbati saqlashga imkon beradi.

Ma'lumki, ijaraga beruvchining mulkdan foydalanish xarajatlari ijara to'lovlari asosida to'liq kompensasiyalanmaydi, ya'ni qoplanmaydi. Kompensatsiya summasi shartnoma muddati va mulk amortizatsiyasi muddatiga bog'liq holda shartnomada oldindan belgilangan bo'ladi. Agar, amortizatsiya muddati shartnoma muddatidan oshib ketsa, bunda mulkning amortizatsiya muddati tugashiga qadar ijara beruvchida qoldiq qiymatida o'z mulki bo'lib qolaveradi. Komission mukofot to'lovi ijara beruvchi xarajatlarini qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu aniq bitim bilan bog'liq emas va foyda manbaini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.


Demak, ijara beruvchining manfaatli qiziqishini, xususan, ijara bitimi tashkil etadi. Bunda iqtisodiy foydali manfaatdorlik yotadi.

Endi ijara oluvchiga kelsak, bunda u ijara asosida o'z xarajatlarini mulkdan foydalanish chog'ida olinishi mumkin bo'lgan daromadi bilan bir o'lchamga keltirishi kerak. Shu bois, bitimni tuzish, tayyorlashda investitsion loyiha (biznes-reja) holida aniq va ravshan, detallashgan holda sinchiklab o'rganilib, ishlab chiqilgandan so'ng tomonlarning roziligi olinadi. Ijaraning iqtisodiy mohiyati qanchalik spetsifik mulkiy munosabatlarga yaqinligi bilan aniqlanishi, shuni ta'kidlash joizki, ijara mulkiga egalik qilish huquqining ijara beruvchidan ijara oluvchiga o'tishi mumkin.

Moliyaviy ijara shartnomasida ijara oluvchi huquqida ijara mulkini sotib olish ko'zda tutilishi mumkin.

Ijara oluvchi ijara mulkini ijara beruvchiga sotib olish qiymatini shartnoma muddati davomida yoki muddatidan avval to'lash asosida o'zini qilib olishi mumkin. Sotib olish bahosi, agar shartnomada sotib olish oldindan ko'rsatilgan bo'lsa yoki shartnomadagi tomonlarning maxsus kelishuvi asosida o'rnatilgan tartibda aniqlanadi. Sotib olish bahosi sifatida mulkning qoldiq qiymati yoki bozor narxida shunday yoxud shunga o'xshash mulk bahosi xizmat qiladi.

Har qanday holatda ham, ijara mulkidan foydalanish ijara oluvchi uchun foyda keltiradi. Quyidagi 1-chizmada "A.AKBARALI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ijaraga olingan asosiy vositalaridan olinadigan daromadlar va erishiladigan imkoniyatlari hamda to'lanadigan mulk solig'i bo'yicha yengilliklar keltirilgan.



1-chizma. Ijaraga olingan asosiy vositalarning xususiyatlari¹

¹ Chizma muallif tomonidan "A.AKBARALI" MChJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ko'p analitik hujjatlarda va materiallarda shu borada ijaraning quyidagi tomonlari e'tiborga loyiq:

- soliq, bojxona, amortizatsiya imtiyozlaridan keladigan iqtisodiy daromad. Soliq imtiyozlari ayrim holatlarda daromad solig'idan ozod qilish, amortizatsiya ajratmalarining yuqoriligi bois soliqqa tortiladigan daromad summasini kamaytirish imkoniyatlarini ko'zda tutadi. Bojxona imtiyozlari bojxona boj to'lovlarini qisqartirilishi bilan izohlanadi. Bunda berilgan imtiyozlar ijara beruvchi ijara oluvchidan ijara to'lovlari miqdorini kamaytirish yo'li bilan bo'linish nazarda tutiladi;

- ijara beruvchilar, investorlar tavakkalchiligi (risk)ning kamayishi, ular qiziqishining himoyasi. Bunda asosiy vositalarning aniq moddiy elementlari sifatida ishlab chiqiladi. Natijada, bitim bevosita ijara obyektini kafolatlaydi. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, mulk ijaraga berilganda ijara bitimi shartlari buzilsa yoki ijara oluvchi bankrot bo'lsa hamda amalga oshirish qiyin jarayon, ya'ni keng hajmli ishlab chiqarish texnologik uskunasi mavjud bo'lsa ham, mulk egasi bo'lib qolish huquqi qolishi lozim. Investor tavakkalchiligi (risk)ning kamayishi ijaraga olingan mulkni maqsadli ishlatilishi yoki ishlatilmasligiga bog'liq;

- davlat ahamiyatiga molik tarmoq yoki ishlab chiqarishga mahalliy byudjet mablag'larini jalb qilish, ijara bitimining oxirgi guruh qatnashchilaridan ijara mulki asosida uni amalga oshiruvchi bo'lib, ijara oluvchilar hisoblanadi. Ular uchun foyda olinayotganligi his qilinishi lozim, yo'qsa butun ijara jarayoni o'ziga jalb qilish xususiyatini yo'qotadi.

Shuningdek, ijara oluvchilar uchun:

- ijara to'lovlarining tannarxida yotgan soliqqa tortiladigan foydaning kamayishi;

- ijara beruvchi balansida qoladigan ijara mulkining qisman mulk solig'idan ozod qilinishi;

- obyektga tezlashtirilgan amortizatsiya qo'llanganda, ijara oluvchida ishlab chiqarishni tezkor yangilash va qayta qurollantirish imkoniyati paydo bo'ladi;

- ijara asosida boshlang'ich moliyaviy og'irliklarning kamayishi — bu ijara to'lovlarining tezlikda va katta hajmdagi to'lovlarni talab qilmaydi. Bu esa mablag'larni ishlab chiqarishga uzoq muddatga jalb qilinishini ta'minlaydi. Vaziyat ishlab chiqarish fondlarini yangilash, ilg'or texnologiyalarni, asbob-uskunalarini foydalanishga olish bilan izohlanadi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash joizki, ijara to'lovlari, avvalambor ijara obyektini foydalanishdan olingan daromaddan to'lanadi. Shu jumladan, ijara to'lovi tarkibi shartlariga, ijara mulki asosida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ko'rinishi ham kiritilishi mumkin;

- ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, qayta tashkil qilish, yangilashda o'z kapital mablag'larini jalb qilinmasligi va nobud (sarf) bo'lmasligi;

- butun investitsion muddatda ijaraga oluvchi (firma)ning to'lovga qobiliyatligining saqlanib qolishi. Ijara oluvchida ishlab chiqarishning ijara mablag'laridan qoplanganidan qolgan o'z ixtiyoriyidagi qismining aylanma mablag'larning o'sishiga jalb qilinishi;

- mavsumiy va davriy bo'lmagan ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish muammolarining tezkor hal qilinishi;

- ijara to'lovlarining miqdori oldindan ma'lum bo'lganligi uchun moliyaviy hisob-kitoblarning oddiy asoslanganligi hamda xarajat bazasini aniq rejalashtirish va hisob-kitoblarni tahlil qilishning mumkinligi;

- ijara to'lovlarini xohlagan ko'rinishda — o'lchamiga, davriyligiga, muddatining uzaytirilishi, to'lov usulini tanlab olishiga qarab hisob- kitoblarning egiluvchanligi;

- ijara oluvchi tavakkalchiligi (risk)ning kamayishi. Ya'ni, ijara oluvchi mahsulotning bozorda yetarli darajada xarid qilinmagan holda, ijara mulkini qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi. Bu, o'z navbatida, yangi mahsulot (uskuna)ni o'zlashtirishdagi riskini kamayishiga olib keladi;

- tanlash imkoniyatining borligi: ijara obyektini sotib olish, shartnoma muddatini uzaytirish yoki yangi asbob-uskuna jalb qilish;

- ijarada ijara oluvchida kredit liniyasini saqlab qolishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, oddiy moliyalashtiruvchi institutlarga bog'liqlikning kamayishi va ularga talabning qisqarishi;

- ijara beruvchi ijara mulkini egasi bo'lganligi uchun ijara oluvchi balansida mulkning aks etmasligi. Bu esa, o'z navbatida, ijara oluvchini mulk solig'idan ozod qiladi;

- bitimni manfaatligini ta'minlovchi vosita bo'lib, korxonada mulkni ijaraga olish tushuniladi. Chunki, uni ssuda asosida foydalanishga olayotganda, ijara mulki kreditni kafolatlovchi garov sifatida amal qiladi. Xorijiy davlatlarda ba'zi ijara kompaniyalari ijara oluvchilardan hech qanday qo'shimcha kafolat talab qilmaydilar;

- kichik va o'rta biznes asosidagi korxonalar, firmalar uchun ijara qisman yagona moliyalashtirish imkoniyati bo'lib hisoblanadi;

- ijara beruvchida riskning o'tishi orqali ijara oluvchida mulk o'z mulki sifatida emas, balki vaqtincha foydalanish uchun olinsa, mulkning jismoniy va ma'naviy eskirish tavakkalchiligi (risk)ning kamayishi. Bundan tashqari, ma'naviy eskirgan detallar va tarmoni almashtirish masalasining qo'yilishi;

- mulkning olinishi va sotilishi, tanlab olinishi, yig'ilishi kabi mehnat talab qiladigan muomalalarda ma'muriy kechikishlar singari tranzaksiyalarda ijara oluvchi mablag'ining iqtisod qilinishi.

Ijara jarayonini obyektiv baholash uchun uning kamchiliklarini ham keltirish lozim bo'ladi. Ijara mohiyatiga ko'ra, ijara beruvchida mulkning ma'naviy eskirishi hamda ijara to'lovini ololmaslik tavakkalchiligi (riski) yotadi. Boshqa tomondan, ba'zan ijara oluvchida ijara qiymati xarid va bank krediti qiymatidan ko'pga tushadi. Ammo, ijaraning ijobiy tomonlari miqdori salbiylariga qaraganda, bir muncha yuqoridir. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ijara xizmatlari bozori endi shakllana boshlamoqda. Hozirgi kunga kelib soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar ko'pgina davlatlar qonunchiligiga ko'ra, qonun bilan mustahkamlangan va yuqorida ta'kidlangan ijara xususiyatlari, amaliy jihatdan ijara munosabatlari jarayonida salbiy tomonlarini o'rni qoplaydi.

Hozir O'zbekiston Respublikasida ijara munosabatlarini tartibga soladigan qonunchilik shakllantirildi. Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan "Ijara to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ijarani amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini belgilagan holda xalqaro huquq me'yorlariga zid bo'lmagan milliy qonunchilik me'yorlariga muvofiq tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi buyrug'i O'zbekiston Respublikasida ijarani qonuniy jihatdan mustahkamlovchi hujjatlardan biri bo'ldi.

Ijaraning huquqiy va tashkiliy — iqtisodiy asoslari, ijara asosida ishlab chiqarish vositalarini investitsiya shakllarini rivojlantirish zaruriyati, mulkchilik huquqlarini, investitsion jarayon ishtirokchilari huquqlarini himoya qilish va sarmoyalar samaradorligini ta'minlash belgilab berilgan. Ijara jarayonlarining iqtisodiy samarasi ko'p hollarda ularning nechog'lik puxta rasmiylashtirilishiga bog'liq. Ijara bitimida uning bajarilishi ketma-ketligini tavsiflovchi bosqich alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Ijara oluvchi buyurtmasi ixtiyoriy ravishda tuzilib, unda mulk turi, uning o'lchamlari, texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari, shuningdek, ta'minotining aniq manzili va rekvizitlari ko'rsatilishi lozim. Ijara beruvchi talab etgan barcha hujjatlarni ijara oluvchi taqdim etishi shart. Xususan, notarius tomonidan tasdiqlangan ta'sis hujjatlarining nusxalari taqdim etilishi kerak (1-jadval).

1-jadval

Ijara jarayonlarining bosqichlari, mohiyati va rasmiylashtirilishi

Bosqichlar	Mohiyati	Rasmiylashtirilishi
------------	----------	---------------------

Tayyorlash va asoslash	Ijara to'lovini amalga oshirish, ijara oluvchining moliyaviy imkoniyatlarini baholash, mahsulotga bo'lgan talab va ijara olingan uskunalaridan foydalanishni baholash, tovarning boshlang'ich qiymati, ijara to'lovlari, ularni uzluksizligi, shartnoma davomiyligi, qoldiq qiymati va boshqa jihatlar tahlili	Uskunani sotib olish yuzasidan ijara oluvchi tomonidan ijara beruvchi taqdim etadigan buyurtma, ijara jarayoni samaradorligi va ijara oluvchining to'lov qobiliyati to'g'risidagi xulosa; ijara beruvchi tomonidan ta'minotchiga yuboriladigan buyurtma-hujjat; ijara jarayonini o'tkazish uchun lizing kompaniyasini bankka qarz olish maqsadida yo'llagan buyurtmasi
Huquqiy jihatdan rasmiylashtirish	Ijara bitimini tuzish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish	Ijara jarayonini amalga oshirish uchun qarz berish to'g'risidagi bank va ijara kompaniyasi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi; ijara obyektining oldi-sotdi shartnomasi; ijara obyektini foydalanishga topshirishdagi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi; ijara shartnomasi; ijara beruvchi tomonidan amalga oshirilgan ijara mulkiga texnik xizmat ko'rsatish shartnomasi; ijara obyektini sug'urtalash shartnomasi.
Ijro etilishi	Ijara mulkidan foydalanish, uni butligini saqlash va ishga yaroqli holatini saqlab, ijara beruvchiga ijara to'lovlarni o'tkazib berish.	Ijara kelishuvi va uskunalaridan keyinchalik foydalanish munosabatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Ijara oluvchining to'lov qobiliyatini, uning ijara to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini, mulkka bo'lgan talab, shartnoma bekor qilinganda uni qayta lizing berish va sotish imkoniyatlarini aniqlash lizing beruvchining vazifasidir.

Ijara beruvchi tomonidan ijara bitimini tuzish yuzasidan ijoiy qarorga kelinganda, ijara oluvchining hujjat arizasiga asosan ta'minotchiga buyurtma yuboriladi. Unda ijara oluvchining bank rekvizitlari va manzili bilan bir qatorda, mulk turi, bahosi va boshqa o'lchamlari ham ko'rsatiladi. Ta'minotchi buyurtma hujjatini olgandan so'ng uni bajarishga tayyor ekanligi yuzasidan ijara oluvchiga xabar beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarga asoslangan xolda shuni aytish mumkinki, so'ngi yillarda yurtimizda ham jahonda bo'lgani kabi ijara va lizing munosabatlari tez suratlarda rivojlanib kelmoqda, buning asosiy omili sifatida tadbirkorlarning asosiy vositalarga bo'lgan ehtiyoji hisoblanadi. Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida ijarasi yoki lizinga olinishi bu tadbirkorlik faoliyati uchun birovning mulkidan vaqtincha foydalanishning keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Rivojlanmagan bozor sharoitida iste'molchi muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. U uskunani qayerdan olishni bilmasligi mumkin. Shuning uchun, boshidanoq, shaxs lizing kompaniyasiga o'zi uchun yetkazib beruvchini aniqlash so'rovi bilan murojaat qilishi kerak va bu allaqachon maslahat, lizing kompaniyasining qo'shimcha xarajatlari, buning uchun to'lash kerak.

Lizing kreditlashning bir turi sifatida, bir tomondan, lizing oluvchidan eksklyuziv foydalanish uchun texnik vositalarni topshirishni ta'minlaydi, boshqa tomondan, avtomobillar,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ijara to'g'risida"gi Qonuni, 19.11.1991 yildagi 427-XII-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni. 13.04.2016-yildagi O'RQ-404-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
5. Мандрощенко, О. В. (2023). Методика планирования организациями отдельных налоговых платежей. Имущественные отношения в Российской Федерации, (11 (266)), 20-27.
6. Финансы. Курс лекций: учеб.-метод. пособие / А.А. Голубицкая. – Минск: БИП, 2023. – 161 с.
7. Осокина, К. А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕЙРОСЕТЕЙ В МАРКЕТИНГЕ. ББК 65.9 (2Рос) я43 С56 Рецензенты, 79.
8. Алексеева, Г. И. (2020). Стандартизация бухгалтерского учета договоров аренды в России. ББК 65.052 А43, 124.
9. Anderson, J. L., & Bogart, D. B. (2024). Property Law: Practice, Problems, and Perspectives. Aspen Publishing.

uskunalar va jhozlar lizing muddati davomida lizing oluvchining mulki bo'lib qoladi. Ushbu shartlarga asoslanib, lizinga oluvchi:

- mashinalar va uskunalar ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan kafolatdan to'liq foydalanadi;
- o'z hisobidan sug'urta qilishi mumkin, ammo lizing beruvchining foydasiga ularning yo'qotishlari, yo'q qilinishi va boshqa sabablarga ko'ra lizinga olingan mablag'lar ularni yaroqsiz holga keltirishi mumkin;
- butun lizing muddati davomida lizinga olingan aktivlarning to'g'ri saqlanishini ta'minlashi shart;
- o'zgarishlar lizing oluvchining hisobidan amalga oshiriladi, deb olgandan keyin, lizing beruvchi yozma rozilgisiz lizinga olingan aktivlari dizayni uchun har qanday o'zgarishlar qilish huquqiga ega emas va shartnoma tugaganidan keyin bunday huquq beriladi;
- lizinga beruvchining yozma ruxsatisiz boshqa shaxslarni lizinga olingan obyektlarning dizayni va texnik xususiyatlari bilan tanishtirishi yoki ushbu shaxslarga ijara shartnomasi bo'yicha huquqni topshirishi mumkin emas.

Shunday qilib, ijara va lizing munosabatlari bugungi kun talabi hamda bu munosabatlar bozor iqtisodiyotining ajralmas qismidir. O'rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdikki yurtimizda bu munosabatlar hali to'liq rivojlanmagan keyingi rivojlanish bosqichlari uchun islohotlarga muhtoj. Texnik va huquqiy shartlar hamda majburiyatlarini qat'iy belgilanishi lozim. Bu bizning keyingi o'rganishlarimizga mavzu bo'lib xizmat qiladi.

10. Голубицкая, А. А. (2023). Финансы. Курс лекций: учеб.-метод. пособие.

11. Haila, A. (2022). Land as a Financial Asset: The Theory of Urban Rent as a Mirror of Economic Transformation 1. In The Political Economy of Land (pp. 21-39). Routledge.

12. Charles, S. L. (2020). The financialization of single-family rental housing: An examination of real estate investment trusts' ownership of single-family houses in the Atlanta metropolitan area. Journal of Urban Affairs, 42(8), 1321-1341.

13. Tohrovich, Q. N. (2024). The Role of Performance Assessment in the Personnel Management System. American Journal of Integrated STEM Education, 1(1), 43-51.

14. Кудбиев, Н., & Тожиматов, А. (2023). KORXONALARNING TIJORAT BANKLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 75-84.

15. Кудбиев, Д. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ИХ УЧЕТ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.